

## INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI “VATAN” KONSEPTI IFODALANGAN MAQOLLAR TAHLILI

**Mamatmuratova Oltinoy Ishqobil qizi**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Lingvistika: ingliz tili yo‘nalishi magistranti

[oltinoymamatmuratova83@gmail.com](mailto:oltinoymamatmuratova83@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada xalq og‘zaki ijodiga mansub bo‘lgan o‘zbek xalq maqollarida Vatan konsepti dominantasi bilan kelgan maqollar tahlil qilinadi.*

*O‘zbek va ingliz tilidagi xalq maqollarida Vatan konsepti muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ikki xalq maqollarida Vatanni qiyoslash va o‘xshatish usullarida farqlar ko‘zga tashlanadi. Bu xalq mental xususiyatlari bilan bog‘liq factor hisoblanadi. Maqolamizda ayni shu farqli va o‘xshash jihatlar e‘tiborga olinib tahlilga tortilgan.*

**Kalit so‘zlar:** madaniyat, maqol, konsept, tahlil, mentalitet.

### ABSTRACT

*This article analyzes proverbs that come with the dominant concept of the Fatherland in Uzbek folk proverbs that belong to folk oral creativity.*

*In folk proverbs in Uzbek and English, the concept of Homeland is important. In these two folk Proverbs, differences in ways of comparing and simulating the motherland are prominent. It is a factor associated with folk mental properties. In our article, the same different and similar aspects were taken into account and drawn into the analysis.*

**Keywords:** culture, proverb, concept, analysis, mentality.

### KIRISH

Lingvokulturologiya fani antroposentrik tilshunoslikning bir tarmog‘i sifatida hali o‘zbek tilshunosligi tarixida o‘zining yangiligini saqlab turibdi. Konsept borasidagi tadqiqotlar bu fanning asosiy o‘rganish obyektini tashkil qilmoqda. Konseptlar milliy madaniyatning tilda aniq va keng aks ettira oladigan birlik sifatida tahlilga tortilayotgani esa tilshunoslik uchun yaxshi natijalar bermoqda. O‘zbek xalq maqollari mavzu jihatdan rang barang ekanligi hammamizga ma‘lum. Ana shu mavzu doirasidan kelib chiqqan holda maqollardagi konseptual xilma-xillikni ham e‘tibordan chetda qoldirmaslik kerak.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Rus lingvistikasida 20-asrning birinchi yarmida faylasuf S. Askoldev tomonidan muomalaga kiritilgan bu tushunchani olim turli millat vakillari muloqotiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan kommunikativ jarayon sifatida qayd etadi.[1,267-269.] Chunki biror so'z yoki terminning kontseptual xususiyatlarini tahlil qilishda dastlab kishi ongi, idroki ishga tushadi. Kishilar bilan muloqotga kirishishda ham, kommunikativ holatni yuzaga chiqarishda ham, nutqiy strategiya tuzishda va samaraga erishishda ham inson idrokining ahamiyati kattadir. Yu.S.Stepanov yozgan "Концепты. Тонкая пленка цивилизации" kitobining ham asosiy o'rganish obyekti kontsept bo'lib, olim bu tushunchani mantiq, psixologiya, falsafaga tegishli bo'lgan "Kontsept" ga, tarixiy nuqtayi nazardan Platon "g'oyalari"ga o'xshash madaniyat fenomeni sifatida baholaydi.[2,41-42]

Tilshunos olim N. Mahmudov o'zining "Til tizimi tadqiqi" nomli kitobining "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab..." mavzusidagi maqolasida "...konsept tafakkurga oid, mazmuniy mental tushuncha, lekin uni milliy-madaniy unsurdan tamoman xoli bo'lgan hodisa sifatida qarash anchayin munozaralidir" deb hisoblaydi. [4,60] Pragmalingvistika hamda kognitiv tilshunoslik asarlari muallifi, tilshunos olim Shahriyor Safarov ta'biri bilan aytganda, "...inson til va moddiy olamni bir xil uslubda hamda bir xil yo'nalishda o'zlashtiradi. Moddiy dunyo idroki ayni paytda idrok etilayotgan predmet –hodisalar haqida tushuncha tug'ilishini, keyinchalik ushbu tushuncha mental namuna – konsept sifatida shakllanib, moddiy nom olishini taqozo qiladi." [5,10]

## NATIJALAR

Maqollar, xususan, o'zbek xalq maqollari o'z tarkibida turli-tuman konseptlarni birlashtirganligi tadqiqotimiz natijasida qayd etildi. Vatan konsepti o'zbek xalq maqollarida juda ko'plab uchraydi. Vatan har qanday millat uchun uzoq o'tmishlardan muqaddas, ulug' dargoh sanalib kelingan. Shu sababdan ham Vatan konsepti aks etgan maqollar xalq og'zaki ijodida ko'plab uchraydi va uni tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Vatan konsepti juda ko'p ochilmagan qirralari bilan hali-hamon tilshunoslarni o'ziga jalb qilib kelmoqda.

Quyida Vatan haqidagi maqollarning milliy-madaniy konseptual belgilari bir qancha misollar yordamida ko'rib chiqiladi:

*Bulbul chamanni sevar ↔ Odam -vatanni.*

Ushbu maqolda O'zbek millatiga mansub inson ruhiy olamida Vatan tushunchasining ahamiyati qayd etilgan. Maqoldagi Vatan so'zida faqat muayyan hudud, manzil, o'rin-joy, tabiat aks etgan, desak yanglish bo'ladi. Bu so'z ma'no jihatdan ajdodlar ruhi, ma'naviy meros obidalari, qadriyatlar, millat birligi,

mentalitet xususiyatlari bilan uyg'unlashadi. Bulbul chamanda qanchalar yayrasa, inson vatanida shunchalar o'zini erkin his qiladi.

Vatan haqidagi maqollarda qiyoslash, taqqos usuli eng ko'p qo'llanadi:

*O'zga yurtida shoh bo'lguncha,*

*O'z yurtida gado bo'l.*

Bundan shu narsa ma'lum bo'ladiki, mazkur maqol avvalgi namunadagi mazmunni chuqurlashtiradi. Moddiy ta'minotdan ko'ra ma'naviy ehtiyoj muhimroq ekani ifodalanadi. Tajribasiz odam hayotdagi hamma muammoni iqtisod bilan o'lchaydi. Uning uchun turmush to'kinligi har qanday tushunchadan afzaldek tuyiladi. Lekin Boburdek shoh o'z diyorini eslab azoblanganidan xulosa chiqarsak, maqoldagi fikming qanchalar aniq va ibratli tarzda berilgani ma'lum bo'ladi.

*Ona yurtida oltin beshiging.*

Bu yerda Vatan konsepti ham ona, ham oltin beshikka qiyos qilinmoqda. Beshik-bu go'dak orom olib, tinch, osuda uxlaydigan bexavotir joydir. Demak Vatan ham xuddi ona kabi bizga alla aytib, tinch bo'lishimiz uchun beshik singari bizni qo'riqlab turadigan maskandir. Maqolda milliy-madaniy konseptual belgilar sifatida ona va beshik so'zlari olingan.

*O'z uying - o'lan to'shaging.*

Bu maqolda to'shak o'ziga xos konseptual belgilaridan biri bo'lib, uy ma'nosida ishlatilgan.

*O'z yurtida qadri o'zga yurtida bilinar.* Bundan xulosa qilinadiki musofir bo'lmaguncha Vatan qadrini, unga bo'lgan sog'inchni his qilish qiyin. Aslida ham shunday. Qadr so'zi milliy madaniy konseptual belgi funksiyasida ishlatilgan.

Bilamizki, vatan bizning uyimiz unda barcha narsalar mavjud. O'z ona yurti bor inson esa dunyoda barcha narsaga ega insondir.

Ingliz tilidagi maqollarda Vatan o'zbek tilidagi kabi "ona"ga qiyoslanishi deyarli uchramaydi. Lekin shunday bo'lsada maqollarning mazmun jihatdan o'xshash hisoblanadi. Xususan, inson va Vatan o'rtasidagi munosabat, o'zaro bog'liqlikni o'zbek va ingliz tillaridagi quyidagi maqollarda ko'rishimiz mumkin:

*Bulbul chamanni sevar,*

*Odam — Vatanni.*

*It is the men who make a city. (Shahar odamlar bilan shahardir.)*

Mashhur o'zbek xalq maqollaridan bo'lgan "Bulbul chamanni sevar, Odam — Vatanni" maqolining birinchi qismida bulbul chamanni ya'ni bog'ni o'ziga maskan tutgani va bulbul chamanga oshufta ekanligi bayon etilsa, maqolning ikkinchi qismida inson uchun eng aziz va sevimli maskan Vatan ekanligi, Vatansiz inson yashay olmasligi ifodalanmoqda.

“It is the men who make a city”(Shahar odamlar bilan shahardir). Ushbu ingliz xalq maqolida ham inson Vatansiz, Vatan insonsiz bo‘lmasligi, bu ikki narsa bir biriga o‘zaro bog‘liqligi aks etgan.

Shuningdek, “O‘z uyim — o‘lan to‘shagim” xalq maqolining mazmuniga yaqin ingliz tilida ikkita maqol uchratishimiz mumkin:

Every bird likes its own nest.

(Har qush o‘z uyasidider.)

Under one’s vine and fig-tree.

(O‘zining uzum toki va anjiri ostida.)

### MUHOKAMA

Buni quyidagicha jadvalda tushuntirishga harakat qilamiz:

Ingliz xalq maqollari	O‘zbek tilidagi maqolning muqobili
1. Every bird likes its own nest. 2. Under one’s vine and fig-tree. 3. East or West home is the best	O‘z uyim — o‘lan to‘shagim
It is an ill bird that fouls its own nest	<i>O‘lgisi kelgan shaqol iniga qarab uvillar.</i>
It is the men who make a city.	Bulbul chamanni sevar, Odam — Vatanni

Ingliz va o‘zbek tillaridagi maqollarda qush timsolini “Bulbul chamanni sevar, Odam — Vatanni”; “Every bird likes its own nest” kabi maqollarda uchratishimiz mumkin. Bu xususiyat ham ikkilasi uchun umumiy hisoblanadi.

Ingliz xalqining mentaliteti bo‘yicha ularning uyi garchand hashamatli bo‘lmasa ham u insonga qasr kabi tuyiladi, ya’ni o‘zini erkin his qiladi. Xohlagan yumushlarini bajaradi. O‘zbek xalqida esa, uy bu o‘z uyining boshqa joylardan ustunligi, inson u yerda o‘zi xohlagan paytda oyoq-qo‘lini uzatib dam olishi mumkinligi bu ikki xalqning alohida ahamiyatga ega bo‘lgan o‘ziga xosliklaridir. Ikkinchi semantik guruhimiz hayvon va parranda nomlari bilan bog‘liq bo‘lib, ingliz maqollarida asosan parrandalar beriladi va ular o‘zbek tiliga turli hayvonlar nomi bilan aks etishini ko‘ramiz “O‘z uying-o‘lan to‘shaging” maqolining ham ma’lum darajada bu yerda ham mos kelishini ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin. Quyida yana bir maqol: *It is an ill bird that fouls its own nest* Ushbu maqolning so‘zma so‘z tarjimasini quyidagicha: *Yomon qush o‘z uyasini bulg‘ar*. O‘zbekcha muqobili esa mana shunday: *O‘lgisi kelgan shaqol iniga qarab uvillar*. Ushbu maqolda ham ingliz tilidagi qush, o‘zbek tilida shoqol deb berilganligini

ko‘rish mumkin. Maqollarda har bir tarixiy davr, ijtimoiy siyosiy voqealar o‘z izini qoldiradi. Maqolda har bir so‘z aniq, o‘z o‘rnida ishlatilgan va ahamiyatli bo‘lib, o‘ziga xos ritm, ohang, kompozitsiyaga ega.

### XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, vatan va unga oid maqollar o‘zida ko‘plab konseptual belgilarni namoyon qila oladi. Maqollarda so‘z qimmatini yorqin ifodalaydi. Maqollardagi so‘zlarni boshqasi bilan almashtirish, biron so‘z qo‘shish mumkin emas. Ular milliy til tarkibida qoliplangan holda namoyon bo‘ladi. Bu janr dunyodagi hamma xalqlar og‘zaki ijodida bor bo‘lib, hajm, shakl, yaratilishi maqsadiga ko‘ra mushtarak hisoblanadi. O‘zbek va ingliz xalqlarida ham Vatan konsepti qatnashgan maqollar ko‘plab uchrashini guvohi bo‘ldik. Bu ikki xalq maqollaridagi Vatanga qiyoslash va o‘xshatishlarida farqlar bo‘lsa ham, mazmuniy jihatdan Vatanni sevish, e‘zozlash, unga sodiqlik targ‘ib qilinadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Аскольдов С.А. Концепт и слово. Статья. Опубликовано в книге: Русская словесность: От теории словесности к структуре текста: Антология / Под общ. ред. В.П. Нерознака. - М.: Academia, 1997. - С. 267-279.
2. Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. М.,1997. С.41-42.
3. Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Ҳикматнома. Ўзбек халқ мақолларининг изоҳли луғати. –Т., 199
4. Mahmudov N. Til tilsimi tadqiqi. Toshkent. “MUMTOZ SO‘Z”2017. 60-bet
5. Safarov Sh. Kognitiv lingvistika. Jizzax -2006. 10-bet
6. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. O‘quv qo‘llanma. –Т., 2014.